lish mumkin. Qadimgi yunon faylasuflari Pifagor va Suqrot qarashlarining Abdulqodir Giloniy ta'limotida ham ta'siri bo'lgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):**


(1). Шайх Саййид Абдулқодир Гилоний. Сиррул асрор. Мактубот. Тошкент, "Мовароуннаҳр", 2005, 24-бет.

(2). Назаров Қ. Ғарб фалсафаси. "Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти" нашриёти, Тошкент, 67-бет.

(3). Комилов Н. Тасаввуф. Тошкент, "Мовароуннаҳр", "Ўзбекистон" нашриёти, 2009, 25-бет.

(4). Юнусова Г. Абдулқодир Гилоний таълимотида инсон моҳияти. Бухоро, "Камолот", 2023, 165-бет.

(5). Гуннар Снирбек, Нилс Гилье. Фалсафа тарихи. Тошкент, "Шарқ", 2002, 74-бет.

(6). Абдулқодир Жийлоний. Раббонийлиткни англаш. 1-китоб. Таржима Муҳаммаджон Нуриддин ва бошқалар, Тошкент, "Sharq", 2005, 78-бет.

(7). Шайх Саййид Абдулқодир Гилоний. Сиррул асрор. Мактубот. Тошкент, "Мовароуннаҳр", 2005, 12-бет.

(8). Шайх Саййид Абдулқодир Гилоний. Сиррул асрор. Мактубот. Тошкент, "Мовароуннаҳр", 2005, 91-бет.

(9). Абдулқодир Жийлоний. Раббонийлиткни англаш. 1-китоб. Таржима Муҳаммаджон Нуриддин ва бошқалар, Тошкент, "Sharq", 2005, .227-бет.

(10). Абдулқодир Жийлоний. Раббонийликни англаш. 1-китоб. Таржима Муҳаммаджон Нуриддин ва бошқалар, Тошкент, "Sharq", 2005, 208-бет.

(11). Иноятов А., Зикриллаев. Ғ. Қуръони karим оятлари мазмун-маъносининг ўзбекча изоҳли таржимаси. Тошкент, "Hilol", 2022, 2-бет.

(12). Шайх Саййид Абдулқодир Гилоний. Сиррул асрор. Мактубот. Тошкент, "Мовароуннаҳр", 2005, 13-бет.



**Kabulniyazova Gulchexra Tashpulatovna (O'zMU "Ijtimoiy fanlar" fakulteti "Falsafa" kafedrasi professori, f.f.d. (DSc)**


## UYG'ONISH DAVRI FALSAFASINING ANTROPOTSENTRIK VA GUMANISTIK YO'NALISHLARINING ASOSIY VAKILLARI


***Annotatsiya.*** *Maqolada G'arbiy Yevropa falsafasi tarixida Uyg'onish davri deb nom olgan muhim davrning antropotsentristik va gumanistik qarashlarining ayrim jihatlari ochib berilgan. Koluchcho Solutati, Lorenso Valla, Dante Aligeri, Franchesko Petrarka kabi mashhur faylasuflar va adiblar ushbu g'oyalarni o'z ijodi markaziga qo'yishgan va keng ommaga badiiy-falsafiy tilda yetkazib berishga xarakat qilishgan. Maqolada ushbu muammolarni yoritishga harakat qilindi.*



***Kalit so'zlar:*** *Uyg'onish davri, gumanizm, antropotsentrizm, panteizm, ontologiya, gnoseologiya, sxolastika, Foma Akvinskiy, inson g'ururi, ruhiy erkinlik.*



**Кабулниязова Гулчехра Ташпулатовна (профессор кафедры «Философия» факультета «Социальных наук» Национального университета Узбекистана, доктор философских наук (DSc)**


## ОСНОВНЫЕ ПРЕДСТАВИТЕЛИ АНТРОПОЦЕНТРИЧЕСКОГО И ГУМАНИСТИЧЕСКОГО НАПРАВЛЕНИЙ ФИЛОСОФИИ ЭПОХИ ВОЗРОЖДЕНИЯ


***Аннотация.*** *В статье раскрываются некоторые аспекты антропоцентрических и гуманистических воззрений важного периода в истории западноевропейской философии, известного как эпоха Возрождения. Такие известные философы и писатели, как Колуччо Солютати, Лоренцо Валла, Данте Алигьери и Франческо Петрарка, ставили эти идеи в центр своих работ и стремились донести их до широкой публики на художественном и философском языке. В статье предпринята попытка пролить свет на эти вопросы.*



***Ключевые слова:*** *Возрождение, гуманизм, антропоцентризм, пантеизм, онтология, эпистемология, схоластика, Фома Аквинский, человеческая гордость, духовная свобода.*



**Kabulniyazova Gulchekhra Tashpulatovna (Professor of the Department of "Philosophy" of the Faculty of "Social Sciences" of the National University of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (DSc)**


## THE MAIN REPRESENTATIVES OF THE ANTHROPOCENTRIC AND HUMANISTIC TRENDS OF RENAISSANCE PHILOSOPHY


***Annotation.*** *The article reveals some aspects of the anthropocentric and humanistic views of an important period in the history of Western European philosophy, called the Renaissance. Famous philosophers and writers such as Coluccio Solutati, Lorenzo Valla, Dante Alighieri, Francesco Petrarch*

*put these ideas at the center of their work and tried to convey them to the general public in an artistic and philosophical language. The article attempts to shed light on these problems.*

***Keywords:*** *Renaissance, humanism, anthropocentrism, pantheism, ontology, epistemology, scholasticism, Thomas Aquinas, human pride, spiritual freedom.*

**Kirish.** XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrgacha Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy-ma'naviy o'zgarishlar. XIV asrning ikkinchi yarmida Italiyada paydo bo'lgan yangi oqim Gumanizm deb atalar edi. Gumanizm falsafasining asoschilari sxolastik falsafaga qarshi kurashgan olimlar shoirlar, san'atkorlar, ilmiy arboblar bo'lishgan. Ular, gumanistik falsafani, yangi dunyokarashni asoslashadi, sxolastikada ishlatiladigan lotin tilining o'rniga, italyan tilini kiritadilar va o'z fikrlarini badiiy obrazlar orqali ifoda etadilar.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Florensiya Respublikasining mashhur fuqarolaridan biri Koluchcho Solutati o'zining Petrarkaning shogirdi deb hisoblagan. U Florensiyada gumanistlar maktabiga asos soldi. Petrarkani sxolast faylasuflardan naqadar katta farq qilishini u o'z asarlarida tushuntirib beradi.

Bu farq umuman olganda gumanizm falsafasining sxolastikadan farqi edi. Gumanizm falsafasi vakillari o'z ijodini Aristotel va Platon asarlarini qaytadan tarjima qilishdan boshladilar. Urta asr sxolastikasi tomonidan kilingan tarjimalar nihoyatda qo'pol. Lug'aviy ma'noda kambag'al va bir taraflama tarjimalar edi. Bu tarjimalarning asosiy maqsadi Aristotelni sxolastikaning tarafdori qilib ko'rsatish edi. Gumanizm vakillarining tarjimalari esa Aristotel, Platon, Suqrot, Seneka, Sitseron kabi faylasuflarning asarlarini asl ma'nosini ochib berishga intilish edi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Gumanistlar antik davr merosini sxolastikaga nisbatan chuqurroq va har taraflama o'rganib chiqishdi. Ular Aristotel va Platon asarlari bilan chegaralanib qolmasdan Anaksagor, Demokrit, Epikur, Sitseron, Plotin kabi mashhur yunon va Rim faylasuflarining asarlarini chuqur o'rganib, tarjima qilishdi [1;29-b.]. Gumanistlar antik davr falsafasida hilma-xil oqimlarni chuqur tahlil qilishga kirishdi. Bu tahlil avtoritetlarga tayanishga asoslanmas edi. Aksincha, har bir antik falsafiy maktabda o'ziga xos bo'lgan fikrlar tizimini o'rganishga va mualliflar nima demoqchi bo'lganliklarini tushunishga xarakat qilishdi. Gumanistlar fikricha, har bir falsafiy maktab falsafa osmonida betakror bir yulduzdir va unga xos bo'lgan go'zallik va tarovat boshqa yulduzlarnikidan farq qiladi. Bu yulduzlar qanchalar ko'p bo'lsa, falsafiy fikr shunchalar boy va betakrordir. Har bir davrning o'ziga xosligi undagi falsafiy oqimlarning xilma-xilligida ham aks ettiiriladi. Ularning barchasi cheksiz xaqiqatning ayrim qirralaridir.

**Tahlil va natijalar.** Gumanistlar o'z asarlarini, ko'pincha, dialog sifatida yozishar edi. Dialogda qatnashuvchi ikki qaxramon savollar orqali bir-birini fikrini tushunishga harakat qiladi va bu dialog orqali ular o'z dunyoqarashini shakllantiradilar.

Gumanistlar davriga eng mos tushadigan falsafalardan biri epikur falsafasi edi. Bu falsafa yer olamini zavq va shavq bilan ifoda etadi va insonning qalbida quvonch his-tuyg'ularini uyg'otar edi. Epikur bu dunyoni zavk bilan qabul qilishni o'rgatar va yer muhabbatini olqishlar edi. Epikur, hatto xudolar ham atomlardan iborat deb, Demokritning falsafiy sistemasini kengaytirdi. Unga atomlarning erkin harakat qilish g'oyasini kiritdi. Epikurga hurfikrlilik nihoyatda xos bo'lgan. Bu esa gumanizm falsafasi vakillariga ham ma'qul kelar edi.

XV asrining eng yirik gumanistlaridan biri Lorenso Valla (1407–1457) edi. U yirik filolog, solishtirma tekshirish usulining asoschilaridan biri bo'lgan. Lorenso o'zining bu usulini Tit Liviy risolalariga, hatto, Injilga ham tatbiq qilgan. U sxolastik mantiqni inkor qilib, unga qaramaqarshi Sitseron ritorizmini qo'yadi. Uningcha, bu ritorizm insonga yangicha fikrlash va bahs yuritish uchun yordam beradi. Lorenso tomonidan "Konstantin sovg'asi" deb atalgan hujjatning haqiqiy emasligining isbot qilinishi katta shov-shuvga sabab bo'ladi. Ma'lumki, bu hujjat papa dunyoviy hokimiyatining huquqiy asosi, deb hisoblanardi. Lorenso Valla filologik, huquqiy, tarixiy dalillar asosida bu hujjatning haqiqiyligini inkor etadi. Axloq-odob masalalarida Lorenso Valla epikurchilikka moyil bo'lib, stoitsizmni inkor qiladi. U insonning tabiiy mohiyatini tan oladi. Uningcha, insondagi o'z-o'zini saqlash hissining muhim hayotiy tomoni-oliyjanoblikdir. Shuning uchun har qanday lazzat ham axloqsizlik emas. Lorenso Vallaning axloqiy ta'limoti individualistik (alohida inson manfaatidan kelib chiquvchi) xarakterdadir [2;26-b.]. Yana shu narsa muhimki, epikurchilikning qayta tiklanishi va yangilanishi davrning falsafiy tafakkuriga unutilgan antik davr atomizmining kirib kelishi uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Dantega lotin averroizmi ta'sir qilgan. U Siger Brabantskiy ta'limoti bilan tanish bo'lgan, ma'lum darajada Psevdo Dionisiy, Areopagit talqinidagi o'rta asr neoplatonizmining ta'siri ham bo'lgan. Averroesning faol aql va uning imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, uni amaliy faoliyatda ko'llashdir.

U o‘zining “Monarxiya” asarida cherkovga qarshi qaratilgan siyosiy nuqtayi nazarini ishlab chiqadi. Uningcha, cherkov faqat “mangulik”ka xos, ya’ni “narini dunyo” masalalari bilan shug‘ullanishi kerak, dunyoviy masalalar esa odamlarning tashvishidir. Odamlarning bu sohadagi faoliyati baxtga, farovonlikka, mustahkam tinchlikka asoslangan ijtimoiy tuzumni qurishdir. Dante o‘z gumanizmini ikki haqiqat haqidagi nazariya bilan uzviy bog‘lagan mutafakkirlardan biri edi. Dante ta’limotida sodda va sxolastik dalillar ko‘p uchraydi, lekin undagi eng muhim g‘oya–har bir insonga xos narsa, siyosat inson tafakkuriga bo‘ysunishi kerak.

Dantening “Ilohiy komediya”sida do‘zax va arosat olamlarida ham inson jonlari xuddi yerga o‘xshab xilma-xil kechinmalarni boshidan o‘tkazadi [2;49-b.]. Jonlar u dunyoda ham tinib tinchimaydilar. Yerdagi qilgan barcha ishlari u dunyoda ularni ta’qib etadi. Dantening bu fikri inson hayotining mohiyati ziddiyatli ekanini bildiradi. Bir tomondan, inson o‘lmas abadiy jonga ega bo‘lsa, ikkinchi tomondan, uning moddiy hayoti va tanasi o‘tkinchidir. Bu foniy dunyoda inson o‘zini ijtimoiy harakatlar va siyosiy hayotdan o‘zini chetlashtirmasligi kerak. Shundan kelib chiqqan holatda, Dante o‘zining siyosiy-ijtimoiy fikrlarini shakllantiradi. Uning fikricha, jamiyatni eng oqilona tuzumi cheklangan ziyoli monarxiya. Davlatning siyosiy tuzumi diniy ta’sirdan istisno bo‘lmog‘i kerak. Monarx esa papaning hukmronligiga bo‘ysunmasligi kerak. Dante katolik cherkovining ko‘pgina odatlarini tanqid qildi. Ayniqsa, katolik cherkovini moddiy boylikka qiziqishini va xilma-xil boyliklarga ega ekanligini noto‘g‘ri, deb hisobladi.

F.Petrarka italyan gumanizmining eng buyuk vakillaridan biri. U o‘zining “Sonetlar” kitobida madonna Lauraga bag‘ishlangan ashulalar bilan bir qatorda o‘z davrining siyosiy va ijtimoiy hayotiga tegishli bo‘lgan ko‘pgina she’rlarni yozdi.

Petrarkaning barcha ishqiy sonetlari 1327-yil 6-aprelda birinchi marta uchrashgan yagona sevgilisi Lauraga bag‘ishlangan. Laura turmush qurgan ayol bo‘lib, buyuk shoirning doimiy xayoliga, ulug‘ va erishib bo‘lmas orzusiga aylandi. Lauraning o‘zi uning his-tuyg‘ularini bilarmi yoki yo‘qmi noma’lum. Butun hayotida iz qoldirgan uchrashuv 6-aprel kuni Pasxa marosimida bo‘lib o‘tganini bilamiz, u shoirning o‘zi bu kun haqida nafaqat she’riy satrlarni, balki batafsil xotiralarini ham qoldirgan: “o‘zining fazilatlari bilan tanilgan va uzoq vaqt davomida qo‘shiqlarda ulug‘langan Laura, “menga birinchi marta” yoshligimning tongida, 1327-yilda, Avinondagi avliyo Kler cherkovida, 6-aprel kuni ertalab ko‘z oldimda “paydo bo‘ldi” [3;33-b.].

Laura yigirma yoshda, Petrarka esa yigirma uch yoshda edi. Ularning uchrashuvi baxtli sevgi hikoyasining boshlanishi bo‘lishi mumkin emas edi: Laura allaqachon turmushga chiqqan, Petrarka esa turmush qurmaslik va’dasi ostida edi. Oshiq shoir go‘zal xonimga faqat ma’yus nigoh tashlab, sonetlari, kansonalari, balladalari, madrigallari bilan uni maqtashi mumkin edi.

Petrarka antiq davrdagi madaniy merosni italyan jamiyati uchun qaytadan ochdi va uni oddiy italyan xalqining tiliga tarjima qilib keng omma o‘rtasida tarqatdi [4;22-b.].

U yunon va rim madaniyatini nihoyatda chuqur va har taraflama bilgan nodir mutaxassislardan biri edi. Antiq madaniyatga xos bo‘lgan dunyoviy hayotdan lazzatlanish g‘oyasini Petrarka o‘z davrining ommasiga ham singdirishga harakat kildi.

Petrarkaning ijodi boshlangan XIV asrning o‘rtalarida o‘rta asr sxolastikasining mashhur vakili avliyo Foma Akvinskiy ta’limoti ko‘pgina Yevropa universitetlarida asosiy darslik sifatida o‘tilar edi. Usha davrning sxolastik universitetlari Akvinskiy ta’limotini dastur sifatida qabul qilishgan edi. Petrarka o‘z zamonasining sxolastik fanini tanqid ostiga oladi. Agar o‘tmishda donishmandlarning soni hisobli bo‘lsa, deydi Petrarka, hozirgi davrda ularning soni mollarning to‘dasi kabi ko‘payib ketgan [5;51-b.]. Kallasida xech qanday bilim bo‘lmagan yosh yigitchalar kafedraga chiqishgandan keyin o‘zining tushunib bo‘lmaydigan ilmiy ishlarini o‘qib berishadi. Xudoni olamiy jon sifatida ko‘rish va uni tabiatda tajalli etishini, olamiy jon bilan inson joni o‘rtasidagi aloqani va bularning barchasining asosida yotgan muhabbat his-tuyg‘usi, ayniqsa, ruhiy muhabbat tuyg‘usini anglashmaydi. Gumanizm masalalarining barchasi o‘rta asrning ratsional falsafasi doirasidan chetga chiqib ketadi va yangi gumanizm davriga xos bo‘lgan irratsional dunyoqarashni yuzaga keltiradi [6;28-b.].

Petrarka davrida antiq madaniy merosni o‘rganishda tekstlarni tahlil qilish keng tarqalgan edi. Bu tahlil qilishda tekstning muallifi avtoritet darajasiga ko‘tarilar edi va uning fikri tanqid qilinmas edi. Petrarka tekstlarni tahlil qilish orqali ulardan farq qiluvchi yangi, falsafiy konsepsiyani yaratish vazifasini o‘z oldiga qo‘ydi. Bunday tahlil ijodiy falsafiy tahlil hisoblanadi va u yangi g‘oyalarni yaratishga olib keladi. O‘rta asr falsafasining markazida teotsentrizm dunyoqarashi yotar edi. Petrarka serqiralli ijodini esa inson masalasi egaladi [7;35-b.]. Teotsentrik qarashga binoan, inson gunohkor banda, u o‘zining nafs va hirslariga berilgan. Petrarkaning ijodida insonning go‘zal ichki tabiati kuylanadi, inson o‘z nafslaridan voz kechol-

maydi, lekin ularni nazorat qilish kerak, insonning barcha istaklari me'yorda bo'lishi kerak. Shunday qilib, Petrarka ijodi antropotsentrik xarakterga ega. Petrarkaning mashhur "Mening sirim" asarida Fransisk va Avgustin nomli qahramonlar o'rtasida bahs-munozara ketadi. Bu asardagi Avgustin Patristikaning dong taratgan vakili avliyo Avgustindir. Avgustin Fransiskni shuhratparastlik, moddiylikga berilishda, yer muhabbatini birinchi o'ringa qo'yishda ayblaydi.

Insonning bu xislatlari ruhiyat olami oldida o'tkinchi narsalardir. Avgustin Francheskoni yuksak ruhiy g'oyalarga da'vat etadi. Petrarka bu asarida moddiy va ruhiy hayotni birlashtirishga harakat qildi. Uning Avgustini moddiylikni inkor etmaydi, u darveshlik, tarkidunyochilikka da'vat etmaydi [8;42-b.]. Avgustin fikricha, Fransiskning ichki olami ziddiyatlarga to'la, bu ziddiyatlardan qanday chiqib ketishni Petrarkaning o'zi ham bilmaydi.

**Xulosa va takliflar.** Shunday qilib, Uyg'onish davri falsafasining antropotsentrizmi va gumanizmi g'oyalarini rivojlantirgan mashhur faylasuflarning qarashlariga xos bo'lgan jihatlarni ko'rib chiqdik. Ularning qarashlari zamonaviy falsafada xam o'z ahamiyatini yo'qotmagan. XXI asr falsafasida inson va uning jamiyat, tabiat va koinotdagi o'rni, tabiat bilan munosabatlari, inson xayotining qadri – qiymati, uning g'ururi va ruhiy erkinligi masalasi dolzarbligini yo'qotmadi. XXI asrning boshlarida falsafada inson masalasi yana dolzarb masalalardan biriga aylandi. Ekologik muammolar esa tabiatga bo'lgan munosabatni qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Falsafa faqatgina umumfan metodologiyasi emas, u buyuk dunyoqarash xarakteriga ega ekanligi ko'pgina olimlar tomonidan ta'kidlandi. XXI asrning boshlarida inson masalasiga bo'lgan qiziqishni xuddi uyg'onish davri kabi yuzaga keltirdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


(1). Гуговский М.А. Итальянское Возрождение. В 2-х томах, Л., ЛГУ, 1947–1961, с. 67.

(2). Блинников Л.В. Великие философы. М., "Логос", 1997, с. 80.

(3). Горфункель А.Х. "Философия эпохи возрождения". М., "Высшая школа", 1980, с. 27.

(4). Соколов В.В. Европейская философия XV–XVII веков. М., "Высшая школа", 1984, с. 28.

(5). Йўлдошев С. ва бошқалар. Янги ва энг янги давр Ғарбий Европа фалсафаси. Т., "Шарқ", 2002, 56 бет.

(6). Ғарб фалсафаси. Т., "Шарқ", 2004, 234-бет.

(7). Скирбекк Г., Гилье Н. Фалсафа тарихи. Т., "Шарқ", 2002, 134-бет.

(8). https://formasloff.ru/2020/07/20/sonety-franchesko-petrarki-o-lyubvi/



**Jumayev Aslam Hazratovich (O'zberkiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti tadqiqotchisi; djumayev@bk.ru)**


## NAQSHBANDIYA TARIQATI TA'LIMOTIDA MEHNAT KONSEPSIYASI


***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada naqshbandiya tariqati ta'limotida mehnat konsepsiyasi yoritilgan. Tariqatlar tasavvufning amaliy ko'rinishi bo'lib, o'ziga xos uslub va qoidalar bilan insonni kamolotga yetkazishga xizmat qilgan. Naqshbandiya tasavvufiy ta'limotidagi eng muhim masala inson va uning kamoloti masalasidir.*



***Kalit so'zlar:*** *mutafakkir, tariqat, naqshbandiya, nafs, mehmnat, axloqiy tarbiya.*



**Жумаев Аслам Хазратович (научный соискатель Института повышения квалификации МВД Республики Узбекистан; djumayev@bk.ru)**


## КОНЦЕПЦИЯ ТРУДА В ИДЕЯХ НАКШБАНДИЯ


***Аннотация.*** *В данной статье освещается философский анализ концепции труда в идеологиях тарикаты накшбандия. Тарикат – практическая форма суфизма, служившая доведению человека до совершенства с помощью собственных методов и правил. Важнейшим вопросом суфийского учения накшбандия является вопрос о человеке и его совершенстве.*



***Ключевые слова:*** *мыслитель, тарикат, накшбандия, желания, трудолюбие, нравственное воспитание.*



**Jumayev Aslam Khazratovich (scientific candidate at the Institute for Advanced Studies of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan; djumayev@bk.ru)**


## THE CONCEPT OF LABOR IN NAQSHBANDIYA IDEAS


***Annotation.*** *This article describes the concept of work in the ideas of naqshbandiya. Tariqats(sects) are a practical form of Sufism, which served to bring a person to perfection with their own methods and rules. The most important issue in Naqshbandi Sufi doctrine is the issue of man and his perfection.*



***Key words:*** *thinker, sect, naqshbandiya, temptation, hard work, moral education.*